

O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA NAZORAT QILISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Tadjibayev Omadbek Ashuraliyevich

O‘zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti magistranti

Bozorlar globallasuvi va dunyo aholisi o‘sishi davom etar ekan, oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoj oshib, ta‘minoti ham murakkablashib boraveradi. Har bir mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini tartibga solish bo‘yicha o‘z tartiblari, qonunlari va amaliyotini belgilaydi. Bu qoidalar boshqa davlat va mintaqalar talablaridan farq qilishi mumkin. Demak, mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqish oziq-ovqat xavfsizligi va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qonunlariga qat‘iy rioya qilishni talab etadi.

Oziq-ovqat ta‘minoti va xavfsizligi har doim keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq. Shu bois, mamlakatimizda dunyo bozorlarida yuzaga kelgan keskin tebranishlarning ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish sifatini sezilarli darajada yaxshilash, aholi salomatligi uchun ko‘plab xavf omillarini kamaytirish imkonini beradigan bir qator muhim chora-tadbirlar qabul qilindi.

Sh. M. Mirziyoyevning 2018 yil 16 yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, bozorni sifatli, xavfsiz va arzon mahsulotlar bilan to‘ldirish, aholining xarid imkoniyatini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Shu asosida yurtimizda talab yuqori bo‘lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishda to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash deyarli barcha mamlakatlarda mavjud.

Masalan, Fransiyada oziq-ovqat chiqindilariga qarshi qonun supermarketlardan sotilmay qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini xayriya yoki qayta ishlash uchun berishni, shuningdek, subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirishni talab qiladi. Natijada fransuz iste‘molchilarining qariyb 95 foizi mahalliy mahsulotlarni afzal ko‘radi.¹

¹ <https://asr.gov.uz/>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi

Braziliya hukumati davlat idoralarini mahalliy fermerlardan mahsulotning ma’lum foizini sotib olishga majbur qiladigan “Oilaviy fermerlardan xarid qilish” dasturini joriy qilganligi natijasida qishloq xo’jaligining YAIMga qo’shgan hisssasi 2%ga oshgan.

Dastur doirasida fermerlarga imtiyozli kreditlar ajratilib, texnik ko’mak ko’rsatilgan. 2020 yilda dasturda ishtirok etayotgan fermerlarning daromadi 22%ga oshgan. Davlat muassasalarida oziq-ovqatning 50%dan ortig’i mahalliy fermerlardan olinadi.

Belarusning “Qishloq hududlarini rivojlantirish va agrosanoat kompleksi samaradorligini oshirish” Davlat dasturida davlat organlarining mahalliy ishlab chiqaruvchilardan mahsulot sotib olish majburiyati, qishloq xo’jaligi obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar berish, eksportchilar uchun moliyaviy yordam va soliq imtiyozlarini taqdim qilish ko’zda tutilgan.

Natijada 2015 yildan qishloq xo’jaligida mehnat unumdorligi 15%ga, qishloq xo’jaligi mahsulotlari eksporti 20%ga oshgan, sut mahsulotlari importi 25%ga, go’sht mahsulotlari importi 30%ga qisqargan.

“Ozarbayjon qishloq xo’jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash” Davlat dasturi doirasida qishloq xo’jaligi mahsuloti yetishtiruvchilar barcha soliqlardan ozod qilindi, davlat organlarini mahalliy fermerlardan mahsulot sotib olishga majbur qildi, shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va kengaytirishni moliyalashtirdi.

Natijada 2016 yildan buyon Ozarbayjonda oziq-ovqat mahsulotlari importi 20%ga qisqargan, mahalliy don yetishtirish 15%ga, sut mahsulotlarini ishlab chiqarish 10%ga o’sgan.

Oldimizda turgan dolzarb vazifalar biri qishloq xo’jaligi mahsulotlarini (paxta va g’alladan tashqari) ekishdan boshlab, mahsulotni saqlash, qadoqlash, qayta ishlash va sotish zanjirini to’liq qamrab oladigan davlat tomonidan rag’batlantirish va moliyaviy qo’llab-quvvatlashning kompleks Dasturini qabul qilish orqali sanoat va qishloq xo’jaligini mutanosib rivojlantirish hisoblanadi. Bunda: birinchidan, yetishtirilgan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish; ikkinchidan, davlat tomonidan moliyaviy qo’llab-quvvatlash, jumladan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratishni sohadagi natijadorlik va legallashuvga bog’lagan holda kompleks yondoshuv; uchinchidan, ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari eksporti uchun joriy etilgan vaqtinchalik cheklovlarni bekor qilish; to’rtinchidan, qayta ishlash sanoatining xomashyo bazasini kengaytirish; beshinchidan, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun notarif sun’iy to’siqlarni “paritet” usulda bekor qilish bo’yicha hamkor davlatlar vakolatli organlari bilan muzokaralar o’tkazish, O’zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish

imkoniyatlarini oshirish; oltinchidan, davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarida mahalliy mahsulot ulushini oshirish.

2023-2024 yillar mavsumida dunyo miqyosida bug‘doy yetishtirish 2,2 foizga, shakar ishlab chiqarish 2 foizga kamayishi mumkin. O‘z navbatida moyli o‘simliklarni yetishtirish 4 foizga oshishi kutilmoqda. Shuningdek, 2023 yil oxirigacha sut ishlab chiqarish 1,3 foizga, go‘sht va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish 0,8 foizga oshishi prognoz qilingan.²

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti – FAO prognoziga ko‘ra, ekstremal ob-havo sharoiti va ortib borayotgan geosiyosiy keskinlik global oziq-ovqat tizimiga xavf tug‘diradi hamda savdo va global oziq-ovqat xavfsizligi istiqbolini yomonlashtirishi mumkin.



1-rasm. Global oziq-ovqat bozori rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishlari.³

2023-2024 yillar mavsumida dunyo miqyosida 785,1 million tonna bug‘doy yetishtirilishi kutilyapti. Garchi yetkazib berish hajmi yetarli darajada saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, bu o‘tgan mavsumdagiga qaraganda 2,2 foiz kam.⁴

Bug‘doy yetishtirishning prognoz qilinayotgan qisqarishi Avstraliya va Rossiyada 2022 yildagi rekord ko‘rsatkichlardan so‘ng hosil miqdorining kamayishi, shuningdek, Kanada va Qozog‘istonda yig‘im-terimning prognoz qilinayotgan qisqarishi bilan bog‘liq. Biroq Argentina, Hindiston va AQShda ishlab chiqarishning o‘shishi kutilyapti va bu pasayishning o‘rnini bosadi.

² <https://kun.uz/news/2023/12/19/dunyo-oziq-ovqat-bozorida-qanday-ozgarishlar-kutilyapti>

³ <https://kun.uz/news/2023/12/19/dunyo-oziq-ovqat-bozorida-qanday-ozgarishlar-kutilyapti>

⁴ <https://kun.uz/news/2023/12/19/dunyo-oziq-ovqat-bozorida-qanday-ozgarishlar-kutilyapti>

2023-2024 yillar mavsumida global moyli o‘simliklarni yetishtirish o‘shida davom etishi va 666,7 million tonnaga yetishi kutilmoqda. Bu esa avvalgi mavsumdagiga nisbatan 4 foiz ko‘p.

Soya (Braziliya, Argentina) va kungaboqar urug‘lari (Yevropa, Qora dengiz mintaqasi) yetishtirish bo‘yicha yuqori prognozlar raps yetishtirishning kutilayotgan qisqarishini qoplaydi (Avstraliya, Kanada). Kelayotgan mavsumda jahon miqyosida shakar ishlab chiqarish 175,5 million tonnani tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2022-2023 yillardagi mavsumdagiga nisbatan 2 foiz kam.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning maqsadi mamlakat aholisini ijtimoiy axamiyatga ega asosiy turdagi mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojini mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosini ishlab chiqarish hisobiga qondirishdan iborat. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat: qishloq xo‘jaligi texnikalari va uskunalari, melorativ va irrigatsiya obyektlarining samaradorligini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish; tarmoqni rivojlantirishda innovatsion texnologiya va ishlanmalar bilan ta‘minlanish dasturlarni moliyalashtirish, shuningdek, chorvachilik, yilqichilik, parrandachilik, naslchilik, baliqchilik, asalarichilikni hamda qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi, urug‘chilik, ekish materiallar yetishtirishni rivojlantirish bo‘yicha faoliyat olib boruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari, ilmiy muassalalar va tashkilotlar, shuningdek, qayta ishlash korxonalarining faoliyatlarini tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ulardan oqilona foydalanishning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish; zamonaviy ulgurji savdo obyektlarini (taqsimlash markazlari, logistika markazlari, ulgurji oziq-ovqat bozorlar va majmualari) yaratishda ko‘maklashish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilardan yakuniy iste‘molchigacha mahsulot harakatlanishining samarali tizimini shakllantirish; oziq-ovqat mahsulotlarining ulgurji savdosi uchun transport va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish; oziq-ovqat xavfsizligi monitoringini ilmiy qo‘llab-quvvatlash va qonunchilikda belgilangan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.